

### **Abdurauf Fitrat hayoti tarixidan**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Mahmudov Zoirbek Tohirjon o'g'li**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Turkistonning yirik jadid namoyondalaridan biri Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi haqida bayon qiladi. Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning jadidchilik harakatlariga hamda adabiyoti kirib kelishi, qaltis davrda ham haqiqatni jasorat bilan o'z qalamlarida qog'ozga tushirgani, xalqni ma'rifatga, ozodlikka chorlaganini ko'rishingiz mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *Fitrat taxallusi, oilasi, ijodiy faoliyati, siyosiy faoliyati, jadidchilik harakatlari, "Tarbiyati atfol" jamiyati, she'rlari va asarlari, vafoti.*

XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati bilan birga, yangi adabiyot olami ya'ni jadidlar adabiyoti ham yaratildi. Buyuk jadid bobolarimiz xalqni ozodlik uchun kurashga ma'aniviy kuch, adabiyot bilan qurollantirishmoqchi bo'lishdi. O'shda davrning yirik jadidchilaridan biri Abdurauf Fitratdir.

Abdurauf Fitrat 1886-yil Buxoro shahrida tavallud topgan. Uning otasi Abdurahimboy o'z zamonasining ziyoli boylaridan biri bo'lgan. Abduraufning onasi Mustafbibi o'qimishli ayol bo'lib, farzandlar ta'limi va ta'rbiyasi bilan ko'proq o'zi shug'illangan. Onasining izchil ta'siri ostida Abduraufda yoshligidan she'r zavgi uyg'ongan. Abduraufning taxallusi Fitrat bo'lib, bu so'zning lug'aviy ma'nosi "yaratmoqdir". Shoir talabalik yillarida dastlab ayrim g'azallarida Mijmar (cho'g'don, xushbo'y narslalar solib tutadiladigon idish) taxallusi bilan ijod qilgan bo'lsada, keyinchalik 1908 yillardan to vafot etguniga qadar Fitrat taxallusi bilan ijod qilgan. Abdurauf Fitrat dastlab ibtidoiy maktabda, so'ngra Buxorodagi Mir Arab madrasasida tehsil olgan. Talabalik davrlarida mavjud madrasalar tahsili bilan cheklanib qolmay, zamonaning taraqqiyparvar ulamolaridan mustaqil

ravishda saboq olgan. Aynan talabalik yillarida xorijiy mamlakatlarda nashr qilingan qator jurnal va gazetalar bilan tanishib chiqqan. Bu haqida Qozondan Buxoroga sayohat qilgan mashhur taraqqiyparvar ulamo Abdurashid Ibrohimbek shunday yozadi: “Men Buxoroda ekanman, Rusiyaning Qozondan kelgan ma'muri Buxoro madrasalarini taftish qila boshladi. Bu kun talabalar orasida “zararli” nashrlar tarqalgan va ba'zi majallarda hayajonlantirarli maqolalar ham yozilgan ekan ” . 1907-yil voqealariga bag'ishlangan bu xotira so'ngida ulug' alloma talabalarning faolligiga tan berib, “buxoroning kelajagi mana shu qobilyatli talabalar qo'lidadir” <sup>1</sup>, degan xulosaga keladi. XX asrning boshlarida Turkistonda yashagan olim va siyosiy arbob Zaki validiyning qayd etishicha, 1910-yili Buxoroda “Tarbiyati atfol” jamiyati tuzilgan. Ushbu jamiyatning asosiy maqsadi yiliga xayriya yo'li bilan bir necha talabalarni o'qish uchun xorijga yuborib turgan va u yerda o' sho'balarini( filiallari) ni ochishga muvaffaq bo'lgan. Ushbu filillarni tashkil etishda Muqimiddin, Usmonxo'ja, g'uljali Abdulaziz, Sodiq Ashur o'gli hamda Abdurauf Fitrat asosiy rol ni o'ynagan. Tabiiyki, Fitrat, xorijga o'qishini ham davom ettirish uchun borgan edi. Fitrat, o'zi yozishiga qaraganda, dastlab jadidlarga qarshi bo'lgan va ayrim kishilarning ta'siri ostida unda yangi usul maktabi va umuman, jadidchilikka moyillik, qiziqish paydo bo'lgan. U buxorolik yoshlarning birinchilari qatorida Turkiyaga o'qishga ketdi. 1910-1914-yillar davomida Turkiyada tahsil olgan Fitrat Turkistonga anchagina mashhur shaxs sifatida qaytib keldi. Fitrat Istanbulda o'zi hissobidan bir necha qissalar chop qiladi, ulardan biri “bayonoti sayyohi hindi” ( Hind sayyohi bayonoti) qissasidir.

Fitrat hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan juda ko'p xorijiy manbalarda, ayniqsa , zamondoshlarining xotiralarida uning nomiga doim “shoir” sifatlashi qo'shib aytilgan. Bu Fitratga nisbatan shaxsiy munosabatlarning natijasi bo'lmay, balki uning shoirlik iste'dodiga alohida hurmat bilan qaraganlarining boisi hamdir. Fayzulla Xo'jayev Fitrat asarlarining ahamiyati haqida to'xtalar ekan ,

---

<sup>1</sup> Abdurashid Ibrahim, XX. Asrin Bashlarinda Islam Dunyasi ve Yaponya' da Islamiyat . birinci cilt. Istanbul, 1987. S. 50.

uning 1911- yilda chop etilgan “Sayha” (Na’ra) kitobi xususida shunday yozadi: “Vatanparvarlik she’rlari to’plami bo’lgan “Sayha” ni o’qigan kishilarni Buxoro hukumatiga emas, shu bilam birga rus hukumati ham ta’qib qila boshladi. Chunki bu she’rlarida Buxoro mustaqilligi g’oyasi birinchi marta juda yorqin shaklda ifodalab berildi”<sup>2</sup>. To’plamga kirgan she’rlar taqiqlab qo’yilganiga qaramay, Rusiya turklari orasida (Qrim va Qozon turklari), Eron, Olmoniya (Germaniya) kabi mamlakatlarda ham keng tarqaldi. 1914-yili “Sadoyi Turkiston” gazetasida bosilib chiqqach, jamiyatning barcha tabaqalari orasida qiziqish bilan o’qiladigan qo’shiqday yangraydi.

1917-yildan boshlab Fitrat maorif ishlaridan biroz chekinib, siyosiy faoliyat bilan shug’ullana boshladi. Buxoro jadidlarining tashabbusi bilan tuzilgan “Yosh buxorolilar” partiyasi sarkotibliigi vazifasini bajardi, Samarqandda nashr qilingan “Hurriyat” gazetasida avval faol muallif sifatida qatnashgan bo’lsa, qisqa vaqt o’tishi bilan uning bosh muharriri sifatida faoliyat olib bordi.

Fitrat bu davrda Rossiyadagi Muvaqqat hukumat bilan o’zaro tenglik asosida aloqalarni yo’lga qo’yish borasida juda ko’plab maqolalari bilan siyosiy faoliyatini davom ettirdi. Ammo Fitrat orzu qilgan tenglik, hurriyat orzusi bolsheviklar tomonidan chil parchin qilindi. Shu sabab “bolshevik balosi” bosh ko’targan 1917-yilning oktabrida sodir bo’lgan to’ntarishni “yurt qayg’usi” sifatida qabul qildi.

1918-yili Toshkentga kelgan Fitrat o’z atrofiga yoshlarni yig’ib “Chig’atoy gurungi”ni tashkil qildi. Bu jamiyat 3 yil faoliyat olib borgan bo’lishiga qaramay, nafaqat o’zbek tili va adabiyoti, balki umuman yangi o’zbek madaniyatining shakllanishi va taraqqiyot tarixni butkul yangi, zamonaviy ilm asosida o’rganishni boshlab berdi. “Chig’atoy gurungi” yangi O’zbekiston tarixidagi mahalliy ziyolilar tarafidan tuzilgan birinchi ilmiy tadqiqot jamiyati sifatida tarixga kirdi. Ayni shu jamiyat hozirgi O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va folklori institutining ham tamal

---

<sup>2</sup> Xo’jayev F. Buxorodagi inqilob va O’rta osiyoning chegaralanishiga doir.- Tanlangan asarlar. Uch tomlik. 1Tom, - T.,1978. B,98-99.

toshini qo'ydi. Gurung a'zolari tomonidan qator ilmiy risolalar, ayniqsa, til, imlo masalasiga oid nashrlar e'lon qilindi.

Fitrat 1917-yilgi fevral voqealaridan so'ng jadidlarning Buxorodagi ahvoli murakkablashgach, Samarqandga ko'chib borib 1917-yil apreldan 1918-yil martigacha chiqib turgan „Hurriyat“ gazetasiga muharrirlik qiladi (1917-yilgi 27-sonidan 1918-yilgi 87-sonigacha), gazeta ishlarini rivojlantirish maqsadida Fitrat nashriyotga O'rta Osiyo jadidchiligining darg'asi, muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyni taklif etadi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Fitrat shu-yillarda „Ittihodi taraqqiy“ tashkiloti Eski Buxoro bo'limining raisi ham bo'lgan.

1918-yil martdagi Kolesov voqeasidan keyin u Toshkentga keldi. Dastlab Xadradagi maktabda, may-iyun oylaridan boshlab Turkiston musulmon dorilfununi qoshida tashkil topgan dorulmualliminda til va adabiyotdan dars berdi. 1919-1920-yillarda Afg'oniston amirligining Toshkentdagi vakolatxonasida tarjimonlik qildi.

Toshkentda u asosan ilmiy, ijodiy ma'rifiy ishlar bilan ko'proq band bo'ldi. Bir qator darsliklar tuzdi, „Chig'atoy gurunigi“ nomli ijtimoiy-adabiy tashkilot tuzib, unda faol ishtirok etdi. 1920-yil 9-aprelda „Tong“ jurnalini tashkil etib, yosh ziyolilar avlodini millatparvarlik va vatanparvarlik ruhiyatida tarbiyalashga kirishdi. „Tong“ jurnalining shiori bo'lgan: „Miya o'zgarmaguncha boshqa o'zgarishlar negiz tutmas!“ so'zlari Fitratning shu-yillarda olib borgan faoliyatining maqsad-mohiyatini to'la ifodalaydi. Jurnalda „Chig'atoy gurunigi“ a'zolarining deyarli barchasi ishtirok etdi. Afsuski, jurnal ishi 3-sondan keyin to'xtab qoldi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topishi bilan Fitrat 1921-yilda Buxoroga taklif qilinadi va shu-yildanoq maorif noziri vazifasida ish boshlaydi. 1922-yilda xorijiya (tashqi ishlar) noziri, Xalq xo'jaligi Kengashi raisi, Markaziy Ijroya Qo'mitasi raisi o'rinbosari, Xalq nozirlari sho'rosi raisi o'rinbosari, Hukumat plan va smeta tashkiliy hay'atining raisi, BXSР mehnat kengashining Prezidium a'zosi va boshqa lavozimlarda xizmat qildi. Ikki yil

davomida Buxoro Xalq Respublikasida ta'lim vaziri va iqtisodiy rivojlanish kengashining rahbari sifatida faoliyat yuritgan. U shu davrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi mablag'lari hisobiga 70 nafar turkistonlik istiqbolli yoshlarning Germaniyaga borib o'qishi, Buxoroda Sharq musiqasi maktabining tashkil etilishi, fan va madaniyatga doir xalq qo'lida sochilib yotgan noyob qo'lyozmalarni to'plashda tashabbuskor bo'ldi. Fitratning sa'y-harakatlari bilan Buxoro Xalq Sovet Respublikasida turk (o'zbek) tili davlat tili deb e'lon qilindi. Davlat teatri tashkil qilinib, bu teatrdan ishlash uchun Toshkentdan Mannon Uyg'ur va Cho'lpon, vaqf ishlarini boshqarish uchun esa Munavvar Qori Abdurashidxonov taklif etildi (1921).

Ammo 1923-yilda Yan Rudzutak boshchiligida Moskvadan kelgan komissiya Fitratni ishdan olib, Rossiyaga „chaqirib olingan“ deb e'lon qildi va Fitrat 1923—1927-yillarda Moskvadagi Sharqshunoslik instituti (1921-yilgacha Sharq tillari instituti deb nomlangan)da ishladi, ilm bilan shug'ullandi. Leningrad Davlat universitetining Sharq fakultetida Turk, arab, fors tili va adabiyoti, madaniyatidan talabalarga dars berdi. Leningrad Davlat universiteti professorligiga saylandi. „Abulfayzxon“, „Bedil“, „Qiyomat“, „Shaytonnig Tangriga isyoni“ kabi asarlar yozib, chop ettirdi. 1927-yilning boshida Rossiyadan qaytgach, 1937-yilga qadar Samarqanddagi Oliy pedagogika instituti (hozirgi Samarqand Davlat universiteti) hamda Toshkentdagi Til va adabiyot institutida faoliyat ko'rsatdi. U birgina Turkistonda emas, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Kavkaz, Volgabo'yi matbuotida ham faol ishtirok etdi<sup>3</sup>.

Fitrat turli siyosiy ayblovlar bilan ishdan bo'shatildi va Moskvadagi „Jonli sharq tillari“ institutiga yuborildi. Shu davrdan boshlab Fitrat umrining oxiriga qadar faqat ilmiy izlanishlar bilan mashg'ul bo'ldi.

---

<sup>3</sup> Vatan tarixi. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov, O'. Ubaydullayev, „Sharq“ NMAK BT, Toshkent, 2003.

Fitratning adabiy asarlari, xususan, uning dramaturg sifatidagi faoliyati zamondoshlari tomonidan yakdillik bilan e'tirof etildi. 1916-1930-yillar oralig'ida u o'ndan ortiq dramalar yozdi. Ayniqsa, 1920-yillarda yozgan "O'g'uzxon", "Chin sevish", "Hind ihtilolchilari", "Abulfayzxon" kabi dramalari katta shuhrat qozondi. "Chin sevish" dramasida biz oldingi Fitrat, ya'ni g'arb ilm-fanini o'rganishga bo'lgan targ'ibotning boshqa bir darajaga o'tgani, ya'ni siyosiy jihatdan yetuklikka erishgan Fitratni ko'ramiz. U asar qahramoni Karimbaxsh tilidan bu kabi g'oyalarini quyidagicha ifodasini kuzatish mumkin: *"Ovrupo ishlarini o'rganmak albatta kerakdir. Ovrupoda o'qimoq oprupolilarni insofli, adolatli deb maqtamoq uchun emas, ulardan o'zimizni saqlamoq, tishli-tirnoqli bo'lish uchun kerakdir."*

Fitrat o'z dramalarida, she'rlarida Sharq, xususan, Hindiston xalqining mustamlakachi inglizlarga qarshi kurashi orqali ona Vatan – Turkistonning tuganmas dardlarini ifoda qildi.

Fitrat tarixiy drama janriga asos soldi. U "Abulfayzxon", "Abo Muslim" kabi dramalarida tarixga yuzlanar ekan, o'tmishdagi voqelikning mazmun-mohiyatini tarixiy shaxslar obrazi orqali ularning taqdirleri misolida qayta jonlantirishga hamda ulardan zamon uchun kerakli xulosalar chiqarishga muvaffaq bo'lgan ijodkordir<sup>4</sup>.

Fitrat ilg'or demokratik g'oya va fikrlari uchun ko'pchilik jadidlar qatorida shakkoklik va isyonkorlikda ayblandi. Chor ma'murlari esa uni mustamlakachilikka qarshi turganlikda aybladilar, kommunistik mafkura humron bo'lgan sho'rolar davrida esa, millatchilikda, panturkizm g'oyasi tarafdori, „xalq dushmani“ degan tuhmatlar bilan aybladilar. Professor H.Yoqubovning hikoya qilishicha, Fitratni 1937-yilgacha uning do'sti Fayzulla Xo'jayev o'z himoyasiga olib kelgan. 1937-yilda ko'pchilik qatori Fitrat ham NKVD tomonidan qamoqqa

---

<sup>4</sup> <https://daryo.uz/2021/03/30/millatga-najot-yolini-korsatgan-jadid-abdurauf-fitrat-hayotiga-chizgilar>

olingan. Iosif Stalinning 1938-yil 28-martdagi „Otuvga e’lon qilinganlar ro‘yxati“ga tushgan.

Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat 1938-yil 4-oktabr kuni Toshkent shahrining hozirgi Yunusobod tumani Bo‘zsuv qirg‘og‘idagi qatlgohda otib o‘ldirildi<sup>5</sup>. Uni o‘limga mahkum qilish haqidagi sud qarori bir kundan keyin ya’ni 1938-yilning 5-oktabrida imzolandi. 1963-yil Iosif Stalin vafotidan so‘ng Fitrat nomi oqlandi.

Xulosa qilib aytganda, Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati tarixning eng qaltis damlarida Millat va Vatanga xizmat qilishning yorqin namunasidir. Yirik jadidshunos olim Begali Qosimovning so‘zlari bilan aytganda, har qanday holda ham xalq bilan birga bo‘lish, uning manfaatini har narsadan ustun qo‘yish, har narsadan muqaddas bilish Fitrat shaxsiyatining eng muhim xususiyatlaridan edi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Abdurauf Fitrat, Zabarjad Media , -T. 2022-y.
2. Xo‘jayev F. Buxorodagi inqilob va O‘rta osiyoning chegaralanishiga doir.- Tanlangan asarlar. Uch tomlik. 1Tom ,- T.,1978. B,98-99.
3. Vatan tarixi. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov, O‘. Ubaydullayev, „Sharq“ NMAK BT, Toshkent, 2003.
4. <https://daryo.uz/2021/03/30/millatga-najot-yolini-korsatgan-jadid-abdurauf-fitrat-hayotiga-chizgilar>.
5. Unutilmas siymolar (Jadidchilik harakatining namoyandalari) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi DJQA, „Akademiya“, Toshkent, 1999.

---

<sup>5</sup> Unutilmas siymolar (Jadidchilik harakatining namoyandalari) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi DJQA, „Akademiya“, Toshkent, 1999.